

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI MA'NAVIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xo‘jaqulova Dilnura Xusniddin qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya
fakulteti pedagogika ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda duch kelinayotgan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Jumladan: Ijtimoiy texnologiyalar orqali ma'naviyatni shakllantirish imkoniyatlari va cheklovlari; Internet va ijtimoiy tarmoqlarning yosh avlod tarbiyasiga ta'siri; Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlardan foydalanish samaradorligi. Ushbu maqola ijtimoiy texnologiyalar yordamida yoshlarning ma'naviy madaniyatini yuksaltirish yo'llarini yoritib beradi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, madaniyat, ijtimoiy texnologiyalar, ta'lim, tarbiya, faollik, hamkorlik, qadriyatlar.*

KIRISH

Yangi taraqqiyot davrida mamlakatimizda so‘nggi yillarda jamiyat ehtiyojlari, ta’lim paradigmasini o‘zgarishi barobarida o‘quvchilarning nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalari hamda tayanch ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini shakllantirishning me‘yoriy asoslari yaratildi. “Ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish. Maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo‘llash. Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash ko‘nikmasini shakllantirish” ustuvor masala sifatida belgilangan. Natijada umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar, pedagogik-psixologik xususiyatlar, didaktik imkoniyatlarni takomillashtirishga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratildi.

Ma’naviyat va madaniyat har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim mezon bo‘lib, yosh avlod tarbiyasida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy: “Inson komillikka faqat ma’naviyat orqali erishadi”, — deb ta’kidlagan. Shu bois ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Alisher Navoiy esa: “Odobi yo‘qning ilmi yo‘q”, — deb, bilim va tarbiyaning uyg‘unligini ta’kidlagan.

Globalashuv sharoitida axborot oqimi tez sur’atlarda kengayib bormoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar yosh avlodning dunyoqarashi va qadriyatlariga bevosita ta’sir o‘tkazmoqda. Mahmud Qoshg‘ariy: “Aql yoshda emas, ilm va odobdadir”, — deb bejiz

aytmagan. Demak, yoshlarni axloqiy jihatdan barkamol shaxs etib tarbiyalash uchun zamonaviy, innovatsion va ijtimoiy texnologiyalarni to‘g‘ri boshqarish zarur.

Asosiy qism: Madaniyat - bu o‘quvchi shaxsining qadriyatlaridir. Madaniyat millat, jamoa yoki boshqa aniqlangan odamlar guruhi tomonidan umumiy bo‘lgan e‘tiqodlar, axloqiy qadriyatlar, an‘analari, til va qonunlar (yoki xatti-harakatlar qoidalari) to‘plamini o‘z ichiga oladi. Madaniy jihatdan aniqlangan belgilarga quyidagilar kiradi: uyda gapiriladigan til; diniy marosimlar; urf-odatlar (shu jumladan, ko‘pincha diniy va boshqa e‘tiqodlar bilan birga keladigan nikoh odatlari); ovqatlanish amaliyoti; intellektual, badiiy va bo‘sh vaqtga intilish va xulq-atvorning boshqa jihatlari. Biz muhokama qiladigan madaniyatning asosiy elementlari - bu uning qadriyatlari va e‘tiqodlari kiradi. Qadriyatlar jamiyatda nima yaxshi va adolatli ekanligini aniqlash uchun madaniyat standartidir. Qadriyatlar chuqur singdirilgan va madaniyat e‘tiqodlarini yetkazish va o‘rgatish uchun juda muhimdir. E‘tiqod - bu odamlarning haqiqat deb hisoblaydigan tamoyillari yoki qarashlaridir.

Bugungi kunda ta‘lim tizimida innovatsion texnologiyalar va ijtimoiy platformalardan foydalanish keng rivojlanmoqda. Ijtimoiy texnologiyalar – bu ta‘lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun qo‘llaniladigan zamonaviy usullar va texnologik yondashuvlardir. Ular jumlasiga ijtimoiy texnologiyalar, interaktiv dars uslublari, virtual ta‘lim muhitlari, onlayn ta‘lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa vositalar kiradi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning ma‘naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada shunday degan edi: “Yoshlarga ta‘lim berish bilan birga, ularni mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, vatanparvar va intellektual shaxs sifatida tarbiyalash eng ustuvor vazifamizdir”. Bu esa o‘qituvchilarning faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki yosh avlodning ma‘naviyatini yuksaltirishda ham faol bo‘lishini talab qiladi.

O‘quvchilarning ma‘naviy madaniyatini shakllantirish yo‘llari:

1. Ota-onalar va o‘qituvchilarning hamkorligi

Farzand tarbiyasida eng katta rolni ota-onalar va pedagoglar o‘ynaydi. Agar maktab va oila birgalikda ishlasa, natijalar samarali bo‘ladi. Masalan, ota-onalar o‘z farzandlarining axborot olish manbalarini nazorat qilishi, ularga to‘g‘ri yo‘nalish berishi muhim.

2. Zamonaviy texnologiyalardan maqsadli foydalanish

Internet va ijtimoiy tarmoqlar bugungi yosh avlod uchun asosiy ma‘lumot manbai hisoblanadi. Ular orqali o‘quvchilarga turli ma‘rifiy, tarixiy va milliy qadriyatlar haqida bilim berish mumkin. Masalan, onlayn kutubxonalar, ta‘lim podkastlari, axloqiy targ‘ibot videolari kabi vositalardan foydalanish samarali bo‘lishi mumkin.

3. Qadriyatlarni tarbiyaviy ishlar orqali singdirish

Mashhur mutafakkir Konfutsiy: “Axloqiy tarbiya insonga ilm berishdan ham muhim”, – deb ta‘kidlagan. Shu sababli, o‘quvchilarga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, ularning axloqiy va ma‘naviy qadriyatlarini shakllantirish lozim. Bu jarayonda adabiyot, san‘at va tarixiy shaxslar hayoti katta ahamiyat kasb etadi.

4. Haqiqiy hayotiy misollardan foydalanish

Ta’lim jarayonida hayotiy hikoyalardan foydalanish o‘quvchilarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband singari mutafakkirlar yoshlarga ma’naviy yetuklik va halollikni o‘rgatgan. Ularning hayot yo‘li bugungi avlod uchun ibrat bo‘lishi mumkin.

5. Ijtimoiy loyihalar va ko‘ngillilik harakatlari


Yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirishda ularni turli ijtimoiy loyihalar, xayriya tadbirlari, ekologik va tarixiy obidalarni asrash bo‘yicha tadbirlarga jalb qilish katta ahamiyatga ega. Masalan, maktabda “Ma’naviyat klublari” tashkil qilish orqali, o‘quvchilarni jamiyat oldidagi mas’uliyat hissini oshirish mumkin.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishda ijtimoiy texnologiyalardan Vitagen ta’lim texnologiyasidan foydalanish muhim ahamiya kasb etadi. Vitagen ta’lim texnologiyasi haqida so‘z yuritishdan oldin ushbu tushunchaning o‘ziga ta’rif berib o‘tadigan bo‘lsak “Vita” lotinchadan “Hayot” degan ma’noni anglatadi. Ya’ni vitagen – hayotiy ahamiyatga ega, muhim degan ma’nolarni anglatadi.

Mazkur texnologiyaning asoschisi A.S.Belkin hisoblanadi. Ushbu texnologiya XX asrning 90-yillarida shakillana boshlagan. Ushbu texnologiya o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga imkon beruvchi texnologiya hisoblanadi. Vitagen texnologiya eng avvalo hayotiy tajribaga asoslangan holda ta’lim va tarbiya jarayonida qizlarning rivojlanishini kafolatlovchi o‘zaro natijaviy muloqotni tashkil etishga yordam beradi.

Vitagen texnologiyada boshqa texnologiyalardan farqli ravishda qizlarning hayotiy tajribasini ularning rivojlanishi va ijtimoiylashuvida asosiy vosita sifatida qaraladi. O‘quvchilar bilan ishlash jarayonida hayotiy tajribalarga e’tibor qaratish orqali ular faoliyatini faollashtirish, aniq maqsadga yo‘naltirish, hayotiy voqea-hodisalarga e’tiborli bo‘lishni rivojlanishiga asos bo‘ladi.

Ushbu texnologiya yettita bosqichdan iborat bo‘lib, uning bosqichlari va o‘tkazilish tartibi quyidagi rasmda keltirib o‘tilgan.



Vitagen texnologiyani tashkil etish algoritmi

Vitagen texnologiyada boshqa texnologiyalardan farqli ravishda o‘quvchilarning hayotiy tajribasini ularning rivojlanishi va ijtimoiylashuvida asosiy vosita sifatida qaraladi. O‘quvchilar bilan ishlash jarayonida hayotiy tajribalarga e’tibor qaratish orqali ular faoliyatini faollashtirish, aniq maqsadga yo‘naltirish, hayotiy voqea-hodisalarga e’tiborli bo‘lishni rivojlanishiga asos bo‘ladi.

Vitagen texnologiyaning birinchi tayyorgarlik bosqichi pedagoglardan katta tayyorgarlikni talab qiladi. Bu texnologiyani o‘tkazish jarayonida ishtirok etayotgan pedagog yuqori darajada pedagogik mahoratga ega bo‘lishi lozim. Pedagog tomonidan qizlarning hayotiy tajribasiga tayangan holda o‘rganilishi ko‘zlangan kurs bo‘limi yoki mavzu tanlab olinadi. O‘quvchilar ushbu jarayonda o‘z hayotiy tajribalarini nomayon qila olishlari uchun Vitagen tajribani rivojlantirish metodlari va usullari tanlab olinadi.

Ikkinchi bosqichda esa ushbu jarayonning maqsad va vazifalari aniqlanib, qizlarga ma’lumotlar beriladi.

Vitagen texnologiyaning uchinchi bosqichi boshlang‘ich diagnostika bosqichi ushbu texnologiyaning eng asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda texnologiyani o‘tkazayotgan inson eng avvalo o‘quvchilarning hayotiy tajribalarini ochib beradi va shundan keyin ushbu ma’lumotlarni tahlil qiladi, qizlar hayotiy tajribalarining sifati, anglanganligi, miqdori, mazmuni, chuqur o‘zlashtirilishi, darajasi, ilmiyligi va ishonchliligi keyingi o‘rganilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlar harakatlarini belgilab beradi. Shuningdek ushbu bosqichda o‘quvchilarning hayotiy tajribalari bilan nazariy ma’lumotlar o‘rtasida nomutanosibliklar bo‘lsa aniqlanadi, ushbu aniqlangan nomutanosiblikni keltirib chiqaruvchi sabablar, dalillar to‘planadi. Bu bosqichda texnologiyani tashkil qiluvchi insonning eng asosiy vazifasi o‘quvchilar hayotiy tajribalari va ilmiy bilimlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik qay darajada ekanligini aniqlash va ilmiy asoslarga tayangan holda o‘quvchilar Vitagen tajribalarining tarbiyaviy jihatlarini yaqqol ochib berishni nazarda tutadi.

Har bir bosqich o‘zaro bog‘langan bo‘lib, biri ikkinchisining davomi hisoblanadi. To‘rtinchi bosqich mazmunli-texnologik bosqichda o‘quvchilarda hayotiy tajribalariga tayangan holda ijtimoiy faollik borasida nazariy ma’lumotlar, ilmiy g‘oyalar, dalillarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon o‘quvchilarning hayotiy tajribalarini va axborotlarini hozirgi zamonaviy fanning talablariga moslashtirishdan iborat. Bu bosqichda qizlarning hayotiy bilimlari ilmiy bilimlar bilan to‘ldirilari, ba’zi hollarda hayotiy tajribalar inkor etilgan holda ilmiy jihatdan isbotlangan yangi bilimlar bilan to‘ldiriladi.

Vitagenik tajribalarni korreksiyalash bosqichida esa o‘quvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetensiyaga oid noto‘g‘ri g‘oyalarni, tajribalarni to‘g‘rilashni nazarda tutadi. Bu jarayonning muvofaqiyatli kechishi pedagogning mahoratligiga va qizlardagi hayotiy tajribalarni chuqur o‘rganganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Yakunlovchi diagnostik bosqichda esa o‘quvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetensiyaga oid bilim, ko‘nikma va malakalari nazorat qilinadi. Lekin bu jarayonda Vitagenik tayyorgarlik metod va usullarnidan foydalanilgan holda tashkil qilinadi va albatta o‘quvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetensiyaga oid hayotiy tajribalarini o‘rganish eng asosiy o‘rinni egallaydi.

Texnologiyaning rejalashtirilgan-bashoratlovchi bosqichida ijtimoiy-madaniy kompetensiyaga Vitagen tajribaning qanday ta’sir qilishi oldindan bashorat qilinadi.

XULOSA

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish – bu nafaqat ta’lim tizimining, balki butun jamiyatning dolzarb vazifalaridan biridir. Bugungi kunda ijtimoiy texnologiyalarni maqsadli va samarali qo‘llash orqali bu jarayonni ancha takomillashtirish mumkin. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan ma’rifiy va tarbiyaviy vosita sifatida foydalanish, ota-onalar va o‘qituvchilarning hamkorligi, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, yoshlarni ijtimoiy loyihalarga jalb etish kabi chora-tadbirlar ushbu muammoni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni o‘quvchilarning ma’naviyatini yuksaltirish yo‘lida to‘g‘ri ishlatsak, kelajak avlod nafaqat bilimli, balki ma’naviy yetuk, vatanparvar va ijtimoiy mas’uliyatni his qiluvchi insonlar bo‘lib voyaga yetadi. Shunday ekan, ta’lim jarayonida nafaqat ilm o‘rgatish, balki axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni singdirish ustuvor vazifa bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi", 2022-yil 3-oktabr, 558-son qaror. – Toshkent: Lex.uz, 2022.
2. "Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sinfdan tashqari tadbirlar vositasida o‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish". – Ilmiy anjumanlar to‘plami, 2023. – Toshkent: Ilmiyanjumanlar.uz.
3. "Maktab o‘quvchilarini ma’naviy tarbiyalash konsepsiyasi tasdiqlandi", 2022-yil. – Toshkent: Kun.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida"gi farmoni, 2022-yil. – Toshkent: President.uz.
5. "Ilm va taraqqiyot" ko‘rsatuvi, O‘zbekiston 24 telekanali, 2024-yil, 10-mart soni.
6. N. X. Vohidova, F. O. Mirzayeva. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2022.